

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

YER TUZISH VA YER MUNOSABATLARI KAFEDRASI

YER HUQUQI

fanidan

**«Yer tuzish ishlarini huquqiy rasmiylashtirish» mavzusida kurs
ishini bajarish uchun**

M E T O D I K K O ' R S A T M A

Toshkent – 2009

Ushbu metodik ko'rsatma institut Ilmiy-uslubiy kengashining «__» _____ 200__ yil bo'lib o'tgan № ____ - sonli kengashida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Metodik ko'rsatmada fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish, yer tuzish loyihalarini muhokama qilish va tasdiqlash xujjatlarini rasmiylashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, metodik ko'rsatma yer tuzish va yer kadastri ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahlil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Tuzuvchi: A.M.Muqumov, katta o'qituvchi

Taqrizchilar: R.M.Mirzaabdullayeva, Toshkent Davlat yuridik instituti «Ekologiya va qishloq xo'jalik huquqi» kafedrasida katta o'qituvchisi, Yu.F.N.

Q.Raxmonov, dotsent

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55- moddasiga muvofiq «Yer, yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir».

Jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida yer iqtisodiy farovonlik asosi, kishilar hayoti uchun moddiy shart-sharoiti bo'lib xizmat qiladi. Mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish, ishlab chiqarish munosabatlarini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tish yer maydonlarining tabiiy va iqtisodiy holatlari bilan bir qatorda huquqiy holati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Negaki yangi ishlab chiqarish munosabatlariga mos ravishda yangi yer munosabatlari ham vujudga keladi.

Respublikamiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda, qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishini amalga oshirishga, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talablarni to'laroq qondirishda yer resurslaridan oqilona va unumli foydalanish, uning muhofazasini to'g'ri ta'minlash, shak-shubhasiz, mamlakat iqtisodiyotini bozor munosabatlariga mos holda qayta qurishning asosiy omillaridan biridir.

Yer maydonlaridan oqilona, samarali foydalanish va uni muhofaza qilishni ta'minlashda qonunning ahamiyati juda kattadir. U yerdan unumli foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi hamda undan noto'g'ri hatti-harakatlardan muhofaza qilish choralarini belgilaydi. Aytish mumkinki, yerdan oqilona, unumli, samarali va maqsadga muvofiq foydalanish va muhofaza qilishni qonunlarning yordamisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlar yer munosabatlariga extiyotkorona va oqilona munosabatda bo'lish, asrab avaylash, qadrlash, doimo tuproq unumdorligini oshirib borish talabini belgilaydi.

Yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni yaxshi bilmaslik yerni tasarruf etuvchi davlat boshkaruv organlari va mansabdor shaxslar hamda yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yerni olish va berish borasida kelishmovchiliklar, sarsongarchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan bunday xato-kamchiliklarni bartaraf qilishda davlatimiz rahbariyati olib borayotgan yer siyosatini amaliyotga tadbqiq qilishda bugungi kunda tayyorlanayotgan yer tuzuvchi mutaxassislarga katta ma'suliyat yuklatiladi. Bu mutaxassislar yer huquqlarini yaxshi bilishlari va shu asosda yer munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solishda faol ishtirok etishlari zarur.

Metodik ko'rsatmada yer tuzish bo'yicha ishlarni huquqiy rasmiylashtirishga qaratilgan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash ko'zda tutilgan bo'lib, o'z ichiga quyidagi ketma-ketlikda bajariladigan topshiriqlarni oladi:

1. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilish bo'yicha ishlarni rasmiylashtirish;
2. Yer tuzish loyihalarini tasdiqlash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;
3. Dehqon xo'jaligi uchun yer uchastkalarini ajratish va hujjatlarni rasmiylashtirish.

1- topshiriq. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilish bo'yicha ishlarni rasmiylashtirish.

Fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari

Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaliga tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer xo'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'lmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarkand, Toshkent, Fang'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o'rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr hosildorligidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasiga ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari:

- zahira yerlardan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan;
- qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan beriladi;
- fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari ularning balansidan chiqariladi.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasini olishda fermer xo'jaligi tashkil etilayotgan joyda yashovchi shaxslar ustun huquqdan foydalanadilar.

Zahira yerlardan yoki yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasi o'tkazgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan beriladi.

Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari maxsus tashkil etilgan komissiya o'tkazgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalari mazkur kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) yoki korxona, muassasa, tashkilotning a'zolariga (xodimlariga) fermer xo'jaligi yuritish uchun qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) umumiy yig'ilishi tomonidan, boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining vakolatli organi tomonidan o'tkazilgan tanlov yakunlariga ko'ra tuman hokimining qaroriga asosan berilishi mumkin.

Tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarori viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasi huquqini rasmiylashtirish tartibi

Tuman hokimi tomonidan fermer xo'jaligiga ijaraga yer uchastkasi berish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin tuman yer resurslari va Davlat kadastri bo'limi tomonidan 5 kun muddatda yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi tayyorlanadi.

Yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasida yerlarning turlari bo'yicha yer uchastkasi maydoni, sug'oriladigan yerlarning sifati aks ettiriladi, yerlarni ijaraga berish muddatlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi, shartnomani bekor qilish shartlari va yer uchastkasidan foydalanish masalalari bo'yicha nizolarni hal etish yo'llari ko'rsatiladi. «Shartnomaning alohida shartlari» bo'limida yer uchastkasining kuchsizlanganlik holati, servitutlar (o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi), sug'orish shart-sharoitlari, sug'orish suvlarini hisobga olish masalalari va tomonlarning hohishiga ko'ra boshqa shartlar yoziladi.

Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berish shartnomasi tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limida ro'yxatdan o'tkaziladi va fermer xo'jaligining ijaraga olganlik huquqini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Shartnoma tuzilgandan keyin 5 kun muddatda tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limi vakili chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillari ishtirokida fermer xo'jaligi boshlig'iga ijaraga beriladigan yer uchastkasi chegaralarini ko'rsatadi. Chegara bo'ylab burilish burchaklariga chegara belgilari qo'yiladi.

Fermer xo'jaligi yerlarini ko'rsatish dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda fermer xo'jaligi yerlari tarkibiga kiradigan yerlar konturlari ko'rsatiladi, ijaraga berilayotgan yer uchastkasi chegaralari (chegaraning joyning qaysi elementlari bo'ylab o'tishi, chegaraning ushbu elementlarning qaysi tomonidan o'tishi va boshqalar) tavsiflanadi.

Dalolatnoma yer resurslari va davlat kadastri tuman bo'limi vakili, chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillari hamda fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan imzolanadi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan bittasi Yer resurslari va davlat kadastri tuman bo'limida, ikkinchisi fermer xo'jaligi boshlig'ida saqlanadi.

Fermer xo'jaligida yerdan foydalanish

Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalanish borasidagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi va ikkilamchi ijaraga berilish mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi qayta tashkil etilgan taqdirda, agar yer uchastkasining bo'linishi natijasida yangi tashkil topgan yer uchastkalarining o'lchami «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida nazarda tutilagan eng kam o'lchamlardan kam bo'lmasa, bo'linishi mumkin.

Yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatiga meros bo'yicha o'tadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish xuquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasi taraflarning kelishuviga binoan , taraflar kelishuviga erishmagan taqdirda esa, sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

Fermer xo'jaligining huquqlari

Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:

- berilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

- ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;

- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan xaq to'lanadigan fyuchers (oldindan haq to'lash) kontraktlari tuzish;

- yetishtirilgan mahsulotini, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;

yetishtirilgan mahsulotini, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlarga narx belgilash;

- elektr energiyasi, yoqilg'i moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi yuzasidan shartnomalar tuzish;

- tadbirkorlik faoliyatidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- olgan daromadlarni (foydasini), bank muassasasidagi o'zining hisob varaqlarida bo'lgan pul mablag'larini tasarruf etish;

- aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olish;

- kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga yo'naltirish;

- kreditlar olish uchun o'z mol-mulkini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish;

- kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;

- zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'minlash;

- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligining yerdan foydalanish bo'yicha majburiyatlari

Fermer xo'jaligi majburiyatlari quyidagilar:

- yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va ijaraga olish shartnomasida ko'rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashi;
- ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etishi;
- yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir- choralarini ko'rishi, biznes- rejada shu maqsad uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutishi;
- agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtdan e'tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishishi;
- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta'minlash;
- g'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablarga rioya etishi;
- suv resurslaridan suvdan limit bo'yicha foydalanish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq foydalanishi;
- xo'jalik ichidagi meliorativ tarmoqni tozalab va ta'mirlab turishi;
- yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishi;
- o'z xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashi;
- soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'lashi;
- qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishi;

- qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan muhofaza qilinishini ta'minlashi shart.

Fermer xo'jaligi zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qayta tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligi misolida fermer xo'jaligiga yer ajratish bilan bog'liq yer tuzish ishi o'z ichiga quyidagi xujjatlarni oladi:

1. Fuqaroning fermer xo'jaligini tashkil etish bo'yicha tanlovda qatnashish uchun bergan arizasi (1-ilova);
2. Tanlov komissiyasining tanlov natijalari bo'yicha bayonnomasi (2-ilova);
3. Tuman hokimining fermer xo'jaligini tashkil etish uchun yer ajratish to'g'risidagi qarori (3-ilova);
4. Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasi (4-ilova);
5. Fermer xo'jaligi yer uchastkasi tarixi (5-ilova);
6. Fermer xo'jaligi yer uchastkasi chegaralarini joyida ko'rsatish dalolatnomasi (6-ilova);

2-topshiriq. Yer tuzish loyihalarini tasdiqlash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

Yer tuzishning vazifalari va mazmuni

Yer tuzish yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki ho'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Yer tuzish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy va davlat hokimiyati organi qaroriga yoki yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga topshiriladi.

Yer tuzish istiqbolga mo'ljallangan, loyihalash oldidan xo'jaliklararo hamda ichki xo'jalik yer tuzish turlariga bo'linadi.

Istiqbolga mo'ljallangan va loyihalash oldidan amalga oshiriladigan yer tuzishga quyidagilar kiradi:

- 1) respublika va uning mintaqalarining yer-suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish chizmalarini ishlab chiqish;
- 2) tumanlar va viloyatlarning yer tuzilishi chizmalarini ishlab chiqish;
- 3) tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq istiqbol rejalarini, respublika miqyosidagi va hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
- 4) alohida muhofaza etiladigan tabiiy xududlarning joylashishi va chegaralari belgilanishini asoslash.

Xo'jaliklararo yer tuzishga quyidagilar kiradi:

- 1) joyning o'zida ovullar, qishloqlar, posyolkalar, tumanlar, shaharlar, viloyatlarning chegaralarini belgilash;
- 2) yerlarning joylashishidagi noqulayliklarni bartaraf etgan holda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarning va mulkdorlarning yangi yer uchastkalarini tashkil etish hamda mavjud yer uchastkalarini tartibga solish loyihalarini tuzish;
- 3) yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlariga yer ajratib berish loyihalarini tuzish;
- 4) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yiladigan yerlarni ajratib berish loyihalarini tuzish;
- 5) yer uchastkalarini naturada (joyning o'zida) ajratib berib, yerga egalik qilish huquqini va yerdan foydalanish huquqini, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini hamda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash;

- 6) yangi yerlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jalik yerlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, ko'chkilardan, suv bosishdan, zaxlashdan, qaqrab qolishdan, zaranglashishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, radioaktiv va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish bo'yicha ishchi loyihalarini ishlab chiqish;
- 7) barcha yerlarni ro'yxatga olish hamda foydalanilmayotgan, samarasiz foydalanilayotgan yoki belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan yerlarni doimiy aniqlab borish;
- 8) yerlarni resurs jihatidan baholash, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan yer tuzish hujjatlarini ishlab chiqish;
- 9) yerlarni baholash tadbirlarini o'tkazish.

Xo'jaliklararo yer tuzish tumanlar yoki bir- birlari bilan o'zaro bog'liq qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari guruhlarining ma'muriy chegaralari doirasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari boshqa tumanlar yoki shahar va posyolkalar hududiga tegishli bo'lgan hollarda, ularning chegaralarini o'zgartirish masalalari ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini joyning o'zida belgilash tartibida hal qilinadi.

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari tasdiqlanganidan keyin naturaga (joyning o'ziga) ko'chirilib, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar yer uchastkalarining chegarlari belgilangan namunadagi marza belgilari bilan ajratiladi.

Ichki xo'jalik yer tuzish turi qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining xududini ichki xo'jalik negizida belgilab olib, ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy qilishni, barcha qishloq xo'jalik yerlarini (pichanzorlar, yaylovlar, bog'lar, tokzorlar va boshqalarni) joylashtirishni,

tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqishni, shuningdek sug'oriladigan yerlarni to'la rekonstruksiyalashni o'z ichiga oladi.

Ichki xo'jalik yer tuzish turi loyihalarining amalga oshirilishi ustidan yer tuzishning tarkibiy qismi bo'lgan mualliflar nazorati olib boriladi.

Yer tuzish tartibida yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa loyihalar ham ishlab chiqilishi mumkin.

Yer tuzish tartibida topografiya- geodeziya, kartografiya, tuproq, agrokimyo, geobotanika jihatidan, tarixiy - madaniy va boshqa yo'nalishda tekshirishlar hamda izlanishlar olib borish nazarda tutiladi.

Yer tuzish loyihasini ko'rib chiqish va tasdiqlash

Ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini joyning o'zida belgilashga doir materiallar, shuningdek istiqbolga mo'ljallangan hamda loyihalash oldidan yer tuzish ishlariga doir boshqa materiallar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi va yer tuzish loyihalari qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari mol-mulkining mulkdorlari yoki ular vakolat bergan organlar tomonidan ko'rib chiqiladi va qabul qilinadi, shuningdek manfaatdor tashkilotlar bilan kelishiladi.

Xo'jaliklararo yer tuzish loyihalari viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarga yer ajratib berish loyihalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tuman va shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining ichki xo'jalik yer tuzish loyihalari tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Yer tuzish loyihalariga o'zgartirishlar ushbu loyihalarni tasdiqlagan organlarning ruxsati bilan kiritiladi.

Yer tuzishni yer tuzish xizmati organlari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Qishloq xo'jalik ekinzorlarini joylashtirish, yerlarni yaxshilash va muhofaza qilish, eroziyaga qarshi va melioratsiya tadbirlarini ishlab chiqish yuridik va jismoniy shaxslarning talabnomalariga muvofiq ular hisobidan amalga oshiriladi.

Noqishloq xo'jalik korxonasiga fermer xo'jaligi xududidan yer ajratish bilan bog'liq yer tuzish ishi tarkibiga kiruvchi xujjatlar quyidagilardan iborat:

1. Yer uchastkasiga talabgorning iltimosnomasi (7-ilova);
2. Fermer xo'jaligi a'zolarining umumiy yig'ilishi bayonnomasi (8-ilova);
3. Talabgorning yer tuzish ishini qo'zg'atish bo'yicha tuman hokimiga iltimosnomasi (9-ilova);
4. Yer uchastkasini joyida tanlash dalolatnomasi (10-ilova);
5. Tuman hokimining yer ajratish bo'yicha qarori (11-ilova);
6. Yer uchastkasi plani (12-ilova);
7. Sanitariya – epidimologiya xizmati xulosasi (13-ilova);
8. Viloyat hokimining qarori (14-ilova);
9. Viloyat yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasining xulosasi (15-ilova).

3-topshiriq. Dehqon xo'jaligi uchun yer uchastkalarini ajratish va hujjatlarni rasmiylashtirish

Dehqon xo'jaligi

Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyatiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligini tashkil etish tartibi

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro'yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Yer uchastkasi berish to'g'risidagi ariza so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan yeri, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanishi ko'rsatilgan holda qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruviga yohud boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining ish boshqaruvchisiga (ma'muriyatiga) beriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruvi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining ish beruvchisi (ma'muriyati) dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish imkoniyati to'g'risidagi xulosani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda tayyorlanadi. Mazkur xulosa asosida qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy majlisi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining vakolatli organi dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida iltimosnoma bilan tuman hokimiga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimi ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan iltimosnoma asosida va yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha tuman komissiyasining

xulosasi asosida dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish hamda mazkur xo'jalikni davlat ro'yxatiga olish haqida qaror qabul qiladi.

Tomorqa yer uchastkasi

Tomorqa yer uchastkasi- qishloq xo'jaligi mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun yetishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy ko'rilishi hamda uy-joyi obodonlashtirish maqsadida oila a'zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'lchamlarda ajratib beriladigan yer uchastkasidir.

Tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish ququqini beruvchi davlat hujjati bilan guvohlantiriladi.

Dehqon xo'jaliklariga yer berish shartlari

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolarining, boshqa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi kooperativlari, muassasalari va tashkilotlari xodimlarining oilalariga, shuningdek qishloq joylarda yashovchi o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislarning oilalariga dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydoni hamda qo'shganda sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun 0,06 gektar doirasida tomorqa yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin.

Yangi tashkil etilayotgan dehqon xo'jaligi uchun tomorqa yer uchastkasi olish huquqidan mazkur joyda kamida uch yil mobaynida doimiy yashab kelayotgan shaxslar foydalanadilar (yangi o'zlashtirilayotgan yer maydonlari bundan mustasno).

Dehqon xo'jaligiga ajratilgan yerning chegaralari naturada (joyning o'zida) yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan rasmiylashtiriladi.

Tomorqa yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanayotgan dehqon xo'jaligiga qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi tomonidan umumiy majlisning qarori asosida, boshqa qishloq xo'jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organi, ish beruvchisi (ma'muriyati) tomonidan qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish, yem ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek yaylov yaratish uchun qisqa muddatli ijaraga qo'shimcha ravishda yer uchastkalari berilishi mumkin.

Oila boshlig'iga meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilishga berilgan tomorqa yer uchastkasida dehqon xo'jaligini tashkil etish bilan bog'liq yer tuzish ishi o'z ichiga quyidagi hujjatlarni oladi:

1. Yer egasining dehqon xo'jaligini tashkil etish uchun tuman hokimiga arizasi (18- ilova);
2. Tuman hokimi huzuridagi yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish komissiyasining xulosasi (19- ilova);
3. Tuman hokimining dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori (20 - ilova);
1. Dehqon xo'jaligi yerlari tarxi (21-ilova).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. T.: O'zbekiston, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Fermer xo'jaligi to'g'risida». Yangi taxrir. T.: O'zbekiston, 2004
4. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Dehqon xo'jaligi to'g'risida». T.: O'zbekiston, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori «Qishlok xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora tadbirlari to'g'risida» . T.: 2002.
6. A.Nigmatov. Yer huquqi. O'kuv qo'llanma. T.: Islom Universiteti, 2001.
7. M.X.Rustamboyev va boshq. Yer huquqi. Darslik. T.: Islom Universiteti, 2002.
8. A.A.Varlamov i dr. Gosudarstvennoye regulirovaniye zemel'nykh otnosheniy. M.: Kolos, 1999.
9. Avezbayev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2004.

Mundarija

1. Kirish	3
2. 1-topshiriq. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilish bo'yicha ishlarni rasmiylashtirish	5
3. 2-topshiriq. Yer tuzish loyihalarini tasdiqlash bo'yicha xujjatlarni rasmiylashtirish	13
4. Dehqon xo'jaligi uchun yer uchastkalarini ajratish va xujjatlarni rasmiylashtirish	17
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	21
6. Ilovalar	22

ILOVALAR

(xo'jalik nomi)

**xo'jaligini qayta tashkil etish bo'yicha
komissiya raisi**

_____ga

_____da

yashovchi

_____tomonidan

(F.I.Sh.)

A R I Z A

Menga _____dagi

(yer uchastkasi chegaralari va joy tavsifi)

_____konturda joylashgan _____hektar yer
uchastkasida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda
qatnashishga ruxsat berishingizni so'rayman.

O'zim haqimda quyidagilarni bildiraman:

(ma'lumoti, mutaxassisligi, ish tajribasi va staji, shu jumladan qishloq xo'jaligida)

tashkil etiladigan fermer xo'jaligi xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar:

(xodimlar soni ularning bilimi, ish tajribasi va staji, shu jumladan qishloq xo'jaligida)

O'z navbatida biriktirilgan yer uchastkasidan yuqori hosil olish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini (uch yilda o'rtacha hisoblaganda) yerning kadastr bahosidan kam bo'lmagan miqdorda ta'minlash, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 35-moddasiga muvofiq suv ob'ektlaridan foydalanish majburiyatlarini bajarish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan Yer kodeksining 48-moddasiga muvofiq foydalanish majburiyatlarini bajarish, tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish sxemasiga rioya qilgan holda 10 yil mobaynida ishlab chiqarish ixtisoslashuvini o'zgartirmaslik, almashlab ekishga rioya qilgan holda davlat ehtiyojlari uchun maxsulot sotish, kreditorlik qarzlarni muddatlarida to'lash, shuningdek komissiya tomonidan qo'yilgan boshqa shartlarni bajarish majburiyatini o'z zimmamga olaman.

(sana)

(imzo)

Fermer xo'jaligini yuritish uchun
yer uchastkasi bo'yicha tender (tanlov)
g'olibini aniqlash to'g'risida

_____ tuman _____
(komissiya nomi)
komissiya yig'ilishining _____ - sonli bayonnomasi
_____ qishlog'i «____» __ 200__ yil

Raislik qildi: _____
(komissiya raisi F.I.Sh)

Qatnashdilar: _____
(komissiya a'zosi F.I.Sh)

_____ (komissiya a'zosi F.I.Sh)

K U N T A R T I B I

_____ Fermer xo'jaliklarini tashkil etish
bo'yicha o'tkazilgan tanlov yakunlari to'g'risida.
Kun tartibidagi masala yuzasidan komissiya raisi _____ axboroti
eshitildi.

_____ Kun tartibidagi masalani muhokama qilib komissiya

Q A R O R Q I L A D I:

_____ Fermer xo'jaliklarni tashkil etish uchun o'tkazilgan tanlov
natijalari quyidagicha tadiqlansin.

T/R	Tanlov g'olibi (F.I.Sh)	Yer loyihasi №	Maydoni, ga	To'plagan ball

Komissiya raisi _____
(F.I.Sh) _____ (imzo)

Komissiya a'zolari _____
(F.I.Sh) _____ (imzo)

_____ (F.I.Sh) _____ (imzo)

Kotib _____

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAMANGAN VILOYATI
Chortoq tuman Nokimining
Q A R O R I

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAMANGAN VILOYATI
Chortoq tumani HOKIMINING
Q A R O R I

200 ____ yil « ____ » _____

Chortoq shahri № ____ - sonli

Tuman xududidagi « _____ »
 shirkat xo'jaligi negizida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tender tanlovida
 g'olib chiqqan fuqarolarga hamda mavjud fermer xo'jaliklariga qo'shimcha
 yer maydonlari ajratish haqida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 noyabrdagi PQ-
 514 hamda viloyat hokimining 200 ____ yil « ____ » _____ dagi _____
 tuman hokimining 200 ____ « ____ » _____ dagi _____ - qaroriga asosan,
 hamda tumandagi tugatilgan « _____ » shirkat
 xo'jaligini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha qayta tashkil etish
 komissiya yig'ilishining 200 ____ yil « ____ » _____ dagi _____ -
 bayonnomasini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 6-
 moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi tugatilgan « _____ » shirkat
 xo'jaligini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha qayta tashkil etish
 komissiya yig'ilishining 200 ____ « ____ » _____ dagi ____ - bayonnomasi
 tasdiqlansin.
2. Tugatilgan « _____ » shirkat
 xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantirish maqsadida xo'jalik hududidan tender
 tanlovida g'olib chiqqan fuqarolarga hamda mavjud fermer xo'jaliklariga ijara
 shartnomasi asosida 49 yil muddatga qo'shimcha yer maydonlari ajratib berish
 belgilangan tartibda 1 va 2 – ilovaga asosan ajratib berilsin.
3. Tender tanlovida g'olib chiqqan fuqarolar hamda mavjud fermer
 xo'jaliklari boshliqlariga tuman dehqon va fermer xo'jaliklari vakilligiga a'zo
 bo'lib ish tashkil qilish, ajratib berilgan yer maydonlaridan belgilangan
 maqsadda va samarali foydalanish, tuman hokimligi bilan kelishmasdan
 kapital qurilish qilmaslik, rejada belgilanmagan takroriy ekinlarni ekmaslik
 vazifalari topshirilsin, aks holda O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» ning
 36,40 moddalarining bandlari va fermer xo'jaligini yer uchastkasini uzoq
 muddatli ijara shartnomasining 6 bob 17 bandidagi xolatlar sodir etilganda
 yerga ega bo'lgan ijara shartnomasi bekor qilinsin.
4. Tuman statistika bo'limi (_____) ga yangi tashkil etilayotgan

fermer xo'jaliklariga nom guvohnomalarini olib berish chora-tadbirlarini belgilash vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi (_____) ga yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklarini belgilangan tartibda soliq va statistika organlarida hisobga qo'yish hamda muxr va tamg'a tayyorlash uchun ruxsatnoma berish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limi boshlig'i (_____)ga tuman yer xisobotiga tegishli o'zgarishlar kiritish, fermer xo'jaliklariga yer kadastr hujjatlarini tayyorlab berish va ajratilayotgan yerlarning chegarasini ko'rsatib berish vazifalari topshirilsin.

7. Tuman QSXB, tuman MTP, tuman DFU vakilligi, Agrokimyo ta'minot tuman bo'limi rahbarlariga fermer xo'jaliklariga aylantirilayotgan xo'jaliklarida o'zlarini muqobil xizmat ko'rsatish bo'limlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror tasdig'ini xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi va viloyat hokimligidan so'rsalin.

9. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi

**Qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirishda yer
uchastkasini uzoq muddatli
ijaraga berish**

S H A R T N O M A S I

**Ushbu Shartnoma namunasi Vazirlar Mahkamasining 2002
yil 5-yanvar №8-sonli qarori bilan tasdiqlangan.**

**Qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirishda yer
uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berish**

S H A R T N O M A S I

200__yil «__»_____ - son

Keyingi o'rinlarda «Ijaraga beruvchi» deb ataladigan _____
viloyati_____tumani hokimligi nomidan hokim
_____bir tomondan va tuman hokimining
200__yil «__»_____dagi - qarori bilan tashkil etilgan, keyingi
o'rinlarda «Ijarachi» deb ataladigan fermer xo'jaligi boshlig'i

(xo'jalikning nomi, xo'jalik boshlig'ining ismi, familiyasi va otasining ismi)
ikkinchi tomondan ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I.Shartnoma mavzusi

1. Ijaraga beruvchi_____tumani yerlaridagi_____
gektar ter uchastkasini 200__yil «__»_____dan boshlab _____yil
muddat bilan uzoq muddatli ijaraga beradi. Ijarachi esa ijaraga qabul qilib
oladi.

Yer uchastkasi chegaralari ushbu Shartnomaning ajralmas qismi
hisoblanadigan ilova qilinayotgan fermer xo'jaligi yerlarining tarxida
ko'rsatilgan.

2.Yer
uchastkasi_____

(ixtisoslashuvi)

fermer xo'jaligini yuritish uchun uzoq muddatli ijaraga berilmoqda.

3.Yer uchastkasi quyidagi ekin maydonlaridan iborat:

sug'oriladigan ekin maydoni_____gektar;

lalmi ekin maydoni_____gektar;

bog'lar_____gektar;

tokzorlar_____gektar;

pichanzor va yaylovlar_____gektar;

sug'orish tarmoqlari, drenajlar, yo'llar_____gektar;

imoratlar_____gektar;
bomqa yerlar_____gektar.
4.Sug'oriladigan yerlarning sifat bo'yicha holati:
suv bilan ta'minlanganligi_____%;
sug'orib kelinayotgan muddati_____;
ekin ekib kelinayotgan muddati_____;
suv singdiruvchanligi_____;
eroziyaga uchraganlik darajasi_____;
toshloqlilik darajasi_____;
sho'rlanganlik darajasi_____;
sizot suvlarining joylashish chuqurligi_____m;
tuproqning ball-boniteti_____;
yerning normativ bo'yicha qiymati_____ming so'm.
5.Yer uchastkasini foydalanilganlik darajasi_____;
6.Servitutlar_____

II. Ijara haqini to'lash

7. Yer uchun ijara haqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qishloq xo'jaligi yerlari uchun tasdiqlangan muddatlar va stavkalar bo'yicha yagona yer solig'i tarzida tuman byudjetiga to'lanadi.

8. Ijara haqining o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda penya undiriladi.

III.Ijaraga beruvchining huquq va majburiyatlari

9. Ijaraga beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

ushbu Shartnomani o'zgartirishni yoki Shartnoma shartlari Ijarachi tomonidan buzilgan taqdirda uni bekor qilishni belgilangan tartibda talab qilish;

yer uchastkasini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda xarajatlarni va yetkazilgan zarrani (shu jumladan boy berilgan foydani) to'liq qoplash sharti bilan davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olish;

yer uchastkasidan foydalanilganlik darajasini va servitutlarni aniqlash.

10. Ijaraga beruvchi quyidagilarga majbur:

ijaraga olingan yer uchastkasini ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda natura holida (o'z joyida) berilishini ta'minlash;

qishloq xo'jaligi ekinlari va o'simliklarni sug'orish uchun ajratilgan limitlarga muvofiq suv berilishini ta'minlash;

Ijarachining qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarga rioya qilish.

IV. Ijarachining huquq va majburiyatlari

11. Ijarachi quyidagi huquqlarga ega:

yer uchastkasida belgilangan maqsadda va fermer xo'jaligi ustaviga muvofiq mustaqil ravishda xo'jalik yuritish;

ekilgan va o'tqazilgan qishloq xo'jaligi ekinlari va o'simliklarga, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga hamda ularni sotishdan olingan daromadlarga egalik qilish;

yer uchastkasidagi keng tarqalgan foydali qazilmalar, o'rmonzorlar, suv ob'ektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek yerlarning boshqa foydali xossalardan foydalanish;

yerlarni sug'orish, zaxini qochirish, agrotexnika va boshqa meliorativ ishlarni amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi ekinlarini , o'simliklarni sug'orish va boshqa maqsadlar uchun sug'orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;

Ijaraga beruvchi bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda ishlab chiqarish maqsadidagi hamda boshqa imorat va inshootlar qurish. Ularni qayta qurish va buzishni yer uchastkasining belgilangan maqsadidagi hamda loyiha hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

Yer uchastkasi olib qo'yilganda o'ziga yetkazilgan zararni (shu jumladan boy berilgan foydani) yoki yer uchastkasidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda xarajatlarni undirib olish;

Ijarachi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

12. Ijarachi quyidagilarga majbur:

ixtisoslashuvni 10 yil mobaynida saqlash;

davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar yetishtirishni (ixtisoslikni hisobga olgin holda) tashkil etish;

yerlardan belgilangan maqsadda oqilona foydalanish , tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muxofaza qilish texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik;

ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalarining soz holatda bo'lishini ta'minlash;

yerlarni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida nazarda tutilgan tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash;

boshqa yer egalari , yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va egalarining huquqlarini buzmaslik;

yerdan foydalanish bo'yicha belgilangan ma'lumotlarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'z vaqtida taqdim etish;

boshqa yer egalari , yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va egalarga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda to'lash;

o'z zimmasiga to'g'ri keladigan kreditorlik qarz ulushining tuzilgan shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanishini ta'minlash;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini (besh yil mobaynida o'rtacha hisobda) yerning normativdagi kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash;

Ijarachi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bosha majburiyatlarga ham ega.

V. Yer uchastkasi ijara shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish

13. Ushbu Shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan, tomonlarning kelishuviga erishilmagan taqdirda sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

14. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda;

agar xo'jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi birorta ham xo'jalik a'zosi yoki me'rosxo'r qolmasa;

yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda

yer uchastkasi ijaraga berilgan muddat tugaganda va yerdan foydalanish huquqini tiklash imkoniyati bo'lmaganda;

yerdan belgilangan maqsadda, oqilona foydalanilmaganda, normativdagi kadastr bahosidan muntazam ravishda (uch yil mobaynida) past hosil olinganda;

yerlarning ekologik holati ijarachining aybiga ko'ra yomonlashganda;

yer uchastkasi belgilangan tartibda olib qo'yilganda;

ijara haqi muntazam ravishda belgilangan muddatlarda to'lanmaganda;

agar fermer xo'jaligi yer uchastkasini olgan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida ishlab chiqarish- xo'jalik faoliyatiga kirishmasa;

fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta qo'pol ravishda buzilganda;

ushbu Shartnoma shartlari buzilganda;

amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar bo'yicha.

VI. Tomonlarning javobgarligi

15. Tomonlardan biri ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganda yoki qonunchilikni muntazam ravishda buzganda ikkinchi tomon ushbu Shartnomaning belgilangan tartibda bekor qilinishini talab etish huquqiga ega.

16. Bartaraf etilishi mumkin bo'lgan har qanday buzilish Shartnomaning bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

17. Tomonlardan biri Shartnomani bekor qilish istagi to'g'risida ikkinchi tomonni Shartnomaning bekor qilinish sabablarini asoslagan holda uch oy oldin yozma ravishda xabardor qiladi.

VII. Nizolarni hal qilish

18. Ushbu Shartnomadan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

19. Ushbu Shartnoma Ijaraga beruvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinganda Ijarachi Ijaraga beruvchining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda ushbu qaror yuzasidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

VIII. Shartnomaning alohida shartlari

20. Ushbu Shartnoma uch nusxada tuziladi, ulardan bittasi tuman hokimligida, ikkinchisi –fermer xo'jaligida, uchinchisi –tuman yer resurslari xizmatida saqlanadi.

Tomonlarning yuridik manzillari:

Ijaraga beruvchi:

Ijarachi:

Tomonlarning imzolari:

Ijaraga beruvchi-

tumani hokimi

imzo o'rni

Ijarachi-

fermer xo'jaligi boshlig'i

imzo o'rni

«_____»fermer xo'jaligi yer uchastkasi
chegaralari

T A R X I

Chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar

A dan B gacha _____

B dan V gacha _____

V dan G gacha _____

Miqyos 1:10 000

Ijarachi

Fermer xo'jaligi rahbari

(imzo)

(ismi, sharifi)

M.O'

Tuman yer resurslari xizmati rahbari

(imzo)

M.O'

Ijaraga beruvchi

tumani hokimi

(ismi, sharifi)

M.O'

(ismi, sharifi)

«_____» Fermer xo'jaligiga ajratilgan yer maydonlarini joyida ko'rsatish

DALOLATNOMASI

200__yil «__»_____ sonli _____
(tuzilgan joy)

Men _____
(dalolatnoma tuzuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi)

_____ tumani xokimining 200__y. «__»_____ sonli qaroriga asosan
_____ hududida joylashgan
_____ fermer xo'jaligiga ajratilgan jami
_____ gektar;

Shundan yer turlari bo'yicha:

Nomi	Kontur t/r	Maydoni, ga	Nomi	Kontur t/r	Maydoni, ga
Suvli haydaladigan			Qurilish bilan band		
Lalmi haydaladigan			yerlar		
Bog'lar			Boshqa yerlar		
Uzumzorlar			Meliorativ qurilish		
Tutzorlar			holatidagi yerlar		
Pichanzorlar			Qishloq xo'jaligida		
Bo'z yerlar			foydalanilmaydigan		
Yaylov yerlar			boshqa yerlar		
Tomorqa yerlar					
Ixota daraxtzorlar					
Suv ostidagi yerlar					
Yo'llar, uvatlar					

Yer maydonlarini joyida fermer xo'jaligi boshlig'i _____
ishtirokida o'lchab ko'rsatdim. Yer maydonini o'lchab ko'rsatishda qo'shni
chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillaridan

(ish joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____ lar ishtirok etishdi.

Fermer xo'jaligiga ajratilgan yer maydoni quyidagi chegaradosh yer
egalari va yerdan foydalanuvchilar va yer elementlari bilan
chegaralanadi _____

Ajratilgan yer maydonining _____ tomoniga chegara belgilari qo'yildi va ushbu qo'yilgan belgilarni o'z holatida saqlash majburiyati fermer xo'jaligi rahbariga yuklatiladi.

Ajratilgan yer maydonini o'lchab ko'rsatdi: _____
(imzo, familiyasi, ismi, otasining ismi)

Ajratilgan yer maydonini qabul qildi: _____
(fermer xo'jaligining nomi va vakilning familiyasi, ismi, lavozimi)

Chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning vakillari:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

7-ilova

Qibray tumanidagi
Ulug'bek nomli fermer xo'jaligi
raxbari N. Soatovga
8-o'rta ta'lim maktabi direktori
S. Toshmuhamedovadan

Iltilmosnoma

Sizning fermer xo'jaligingizga tutash hududda faoliyat ko'rsatayotgan 8-o'rta ta'lim maktabida bolalar sport maydoni bo'lmaganligi sababli tarkibida futbol, bosketbol, voleybol va sakrash maydonlari mavjud sport maydonini tashkil qilish uchun fermer xo'jaligi hududidan 0,5 ga yer maydonini ajratishga rozilik berishingizni so'rayman.

Maktab direktori

S. Toshmuhamedova

Qibray tumanidagi «Ulug'bek» fermer xo'jaligi
a'zolarining umumiy majlis

BAYoNI

Matqobulov nomli k.f.y.

yig'ilishi raisi: T. Karmonov

yig'ilish kotibi: R. Shambilova

Xo'jalik a'zolaridan 3 kishi ishtirok etdi.

Kun tartibidagi masala

1. Qibray tumani xalq ta'limi bo'limining 8-o'rta ta'lim maktabiga sport maydonchasi tashkil etishga yer ajratish.

Ushbu masala yuzasidan fermer xo'jaligi boshlig'i T. Karmonov so'zga chiqib, fermer xo'jaligi yeriga yondosh joylashgan 8-o'rta maktabning sport maydonchasi yo'qligini hisobga olib, yoshlarni sport bilan shug'ullanib jismonan baquvvat bo'lishi lozimligi haqida so'z yuritish fermer xo'jaligi yerlaridan 0,5 ga yer maydoni sport maydonchasi qurishga ajratish taklifini kiritdi.

Yuqoridagi masalani yig'ilish qatnashchilari muhokama qilib

Q A R O R Q I L D I:

1. Fermer xo'jaligi yeridan Qibray tumani xalq ta'limi bo'limining 8- o'rta ta'lim maktabiga sport maydonchasi qurilishiga 0,5ga sug'oriladigan yer maydoni ajratilsin
2. Ushbu qaror tasdig'i Kibray tumani hokimidan so'ralsin.

Yig'ilish raisi

T. Karmonov

Yig'ilish kotibi

R. Shambilova

9-ilova

Qibray tumani hokimi Sh.T. Ikromovga
8- o'rta maktab direktori
S. Toshmuhamedovadan

2006 19 aprel

№ 283

Itimosnoma

Bizga Ulug'bek nomli fermer xo'jaligi a'zolarining umumiy yig'ilishining 5 may 2006 yilgi 3- qarori asosida maktabimizga sport maydoni qurilishi uchun 0,5 ga yer maydoni ajratib berish tavsiya etilgan edi. Shu yer maydonini olishda yordam berishingizni iltimos qilaman.

Maktab rahbari:

S. Toshmuhamedova

Qibray tumani «Ulug'bek» nomli fermer xo'jaligi yeridan 8- o'rta ta'lim maktabiga ochiq sport maydonlari tashkil qilish uchun yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi

D A L O L A T N O M A

2006 yil 18 avgust

Ulug'bek nomli fermer xo'jaligi

Ushbu dalolatnoma 8- o'rta ta'lim maktabining tuman hokimi nomiga yozgan 2006 yil 19 apreldagi xatiga asosan tuzildi.

Quyidagi tuzilgan komissiya a'zolari

Komissiya raisi:

Tuman hokimining birinchi o'rinbosari

M. Xoshimov

Komissiya a'zolari:

Toshkent viloyati yer resurslari va ko'chmas

mulk Davlat kadastr boshqarmasi boshlig'i

B. Tojiboyev

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi

N. Nazarov

boshlig'i

Xo'jalik hisobidagi yer tuzish va ko'chmas

mulk kadastr bo'limi bosh mutaxassisi

B. Maxmudov

Tuman bosh me'mori

B. Uteпов

Tuman yer resurslari va davlat kadastr bo'lim

boshlig'i

A. Omonov

Xo'jalik hisobidagi yer tuzish va ko'chmas

mulk kadastr bo'limi mutaxassisi

F. Urazova

Tuman DSEN bosh shifokori

I. Mavlyanov

«Ulug'bek» nomli fermer xo'jaligi boshqaruvi

raisi

N. Soatov

Matqobulov qishloq fuqarolar yig'ini raisi

M. Anorova

8- sonli o'rta ta'lim maktabi direktori

S. Toshmuxamedova

Shu kuni komissiya a'zolari joyiga «Ulug'bek» shirkat xo'jaligi xududiga chiqib, yer holatlari ichki qurilishlar bilan tanishib, tegishli qurilish me'yoriy qoidalarga asoslangan holda ushbu xududdagi faoliyat ko'rsatayotgan 8- sonli o'rta ta'lim maktabining bolalar sport maydoni bo'lmaganligi sababli, tarkibida futbol, basketbol, voleybol va sakrash maydonlari mavjud sport maydoni tashkil qilish uchun yer maydoni tanlash va ajratish masalasini ko'rib chiqish uchun yig'ildilar.

8- o'rta ta'lim maktabiga sport maydoni tashkil qilish uchun maktabga chegaradosh «Ulug'bek» nomli fermer xo'jaligining qishloq xo'jalik xaritasi bo'yicha 34 konturidan 0,5 gektar sug'oriladigan yer maydoni tanlandi.

Tanlangan yer maydoni tashkil qilish uchun tanlangan yer maydoni chegaralari:

Shimoldan – shirkat xo'jaligi yerlari

Sharqdan – 8- o'rta maktab xududi

Janubdan – shirkat xo'jaligi yerlari

G'arbdan – shirkat xo'jaligi yerlari

Yuqorida qayd qilinganlarni hisobga olib komissiya a'zolari, «Ulug'bek» shirkat xo'jaligi yeridan 8- o'rta ta'lim maktabiga ochiq sport maydoni tashkil qilish uchun 0,5 gektar sug'oriladigan yer maydoni tanlash va ajratishni ma'qul deb topdilar va ushbu dalolatnoma tasdig'ini Qibray tumani hokimidan so'raydilar.

Imzo chekuvchilar:

M. Xoshimov

B. Tojiboyev

A. Nazarov

B. Maxmudov

B. Utepov

A. Omonov

F. Urazova

I. Mavlyanov

N. Soatov

M. Anorova

S. Toshmuxamedova

UZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI
QIBRAY TUMANI
HOKIMINING
QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI
QIBRAY TUMANI
HOKIMINING
QARORI

Qibray shaharchasi

№ 825

« 17 » 09 2006 yil

Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limining 8-
o'rta ta'lim maktabiga ochiq sport maydonlari
tashkil qilish uchun yer tanlash va ajratish
to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi PK-255 sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2006 yil 23 martdagi 96-sonli qaroriga asosan "Ulug'bek" nomli xo'jaligi xududidan fuqaro T. Karmonovga fermer xo'jaligi tashkil etish uchun ijaraga ajratilgan yerining bir qismini Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limining 8- o'rta ta'lim maktabiga ochiq sport maydonlari tashkil etish uchun yer maydoni tashlash va ajratish to'g'risidagi tayyorlangan yer tuzish hujjatlarini ko'rib chiqib, "Ulug'bek" nomli fermer xo'jaligi a'zolarining 2006 yil 5 maydagi 3- sonli umumiy majlis qarorini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limining 8- o'rta ta'lim maktabiga ochiq sport maydonlari tashkil qilish uchun yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi komissiya a'zolarining 2006 yil 18 avgustdagi dalolatnomasi tasdiqlansin.
2. Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limining 8- urta ta'lim maktabiga ochiq sport maydonlari tashkil qilish uchun 0,5 ga sug'oriladigan yer maydoni ajratilsin.
3. Ushbu qaror tasdig'i Toshkent viloyati hokimidan so'ralsin.

HOKIM:

SH. IKROMOV

Qibray tumani «Ulug'bek» nomli fermer xo'jaligi xududidan 8- o'rta ta'lim
maktabiga sport maydoni uchun ajratilayotgan yer maydoni ko'rsatilgan
qishloq xo'jaligi xaritasidan

K O' C H I R M A

M I Q Y O S 1: 10000

Shartli belgilar

Yer uchastkalari chegaralari izohi

Tuman hokimini birinchi o'rinbosari
Tuman bosh me'mori
Tuman yer resurslari va kadastr bo'limi boshlig'i
Ulug'bek shirkat xo'jaligi raisi
8- o'rta ta'lim maktab direktori
Rasmiylashtiruvchi

M. Xoshimov
B. Utepov
A. Omonov
N. Soatov
S. Toshmuhamedov
B Maxmudov

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

UzSSV formasining xos raqami 319
KTRK bo'yicha xos raqami
TIBBIY XUJJAT formasi 301-x
UzRSSV 1992 yil 16 aprelda 231
Sonli buyruq bilan tasdiqlangan

(muassasaning nomi)

QURILISH UCHUN AJRATILGAN YER JOY HAQIDAGI

sonli

X U L O S A

«____» _____ 200__ yil

2. Yer ajratish muassasa nomi va bu tashkilotning yuqoridagi rahbar muassasasi _____

3. Ajratilgan yerning manzili _____

(respublika, viloyat, tuman, shaxar va b.)

4. Qaysi hujjat asosida quyidagi xulosa tayyorlangan

4. Qanday sharoitda yer joy ajratilganligi haqida qisqacha ma'lumot

5. Mavjud tartibot bo'yicha muassasa qaysi sinfga taalluqli; sanitariya himoya zonasi bo'yicha va shu zonani tashkil etish imkoniyatlari

6. Suv ta'minot manbalari va unda sanitariya himoya zonasi tashkil etish

7. Chiqindi suvlarini tozalovchi inshooti (kanalizatsiya) tashkil etish imkoniyatlar

8. Chiqindi suvlari chiqarishga mo'ljallangan joy haqidagi ma'lumot

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI
QIBRAY TUMANI
H O K I M L I G I**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI
KIBRAY TUMANI
H O K I M L I G I**

Qibray shaharchasi № _____ «____» _____ 200__ yil

Toshkent viloyati hokimining
vazifasini bajaruvchi
Z. Niyazovga

Qibray tumani hokimligi, tumanidagi Matqobulov nomli qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 8 umumiy o'rta ta'lim maktabining sport maydonchasiga 0,5 ga yer maydonni ajratish haqidagi murojaatlarini inobatga olib, Matqobulov qishloq fuqarolar yig'ini xududidagi «Ulug'bek» fermer xo'jaligi yeridan 0,5 ga sug'oriladigan yer maydoni 2006 yil 17 iyuldagi 825- qarori qabul kilingan.

Shularni hisobga olib, Sizdan qabul qilingan tuman hokimining qarori O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-6 moddalariga asosan tasdiqlab berishingizni so'raydi.

Hujjatlar ilova qilinadi.

HOKIM:

SH. IKROMOV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER
RESURLAR, GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA
VA DAVLAT KADASTRI DAVLAT
QO'MITASI**

**TOSHKENT VILOYATI ER RESURLARI VA
DAVLAT KADASTRI BOSHQARMASI
UPRAVLENIYE PO ZEMELNIM RESURSAM I
GOSUDARSTVENNOMU KADASTRU
TASHKENTSKOY OBLASTI**

700000, Toshkent sh. Movaraunnahr ko'chasi, 19
tel : 133-89-98

«_____» _____ 2007 yil

**Qibray tumani xalq ta'limi bo'limi
8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini
tashkil etish uchun yer maydoni tanlash va
ajratish to'g'risida
XULOSA № _____**

Qibray tumani hokimligi viloyat hokimi nomiga 2007 yil 13 iyuldagi xati bilan murojaat etgan.

Qibray tumani hokimligi qoshidagi yer ajratish komissiyasi tomonidan Qibray tumani Matqobulov nomli qishloq fuqarolar yig'ini xududidagi «Ulug'bek» fermer xo'jaligi yeridan Qibray tumani xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini tashkil etish uchun jami 0,5 gektar sug'oriladigan yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi hujjatlarni tayyorladi.

Qibray tumani hokimi o'zining vakolati doirasida 2006 yil 17 iyuldagi 825- son qarori bilan yuqoridagi yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlagan.

Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limiga ajratilayotgan yer maydonidagi unumdor qatlamini olgan holda shu hududdagi fermer xo'jaliklarning kam xosilli yerlarni yaxshilash uchun solinishi shart.

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» ning 36- modda 10- bandiga asosan 2 yil mobaynida ajratilgan yer maydoni o'zlashtirilmasa maskur qaror o'z kuchini yo'qotishi to'g'risida Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi ogoxlantiriladi.

Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini qurilish uchun ko'rsatilgan shartlar hamda Toshkent viloyati hokimining yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi qarori tasdiqlangandan so'ng ruxsat etiladi.

Toshkent viloyati Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limiga yer maydonlari tanlash va ajratish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqib, ma'qullaydi.

Boshqarma boshlig'i

A. Abdujalilov

**TOSHKENT VILOYATI
ARXITEKTURA VA
QURILISH BOSH
BOSHQARMASI**

**GLAVNOYE
UPRAVLENIYE PO
ARXITEKTURE I
STROITELSTVU
TASHKENTSKOY
OBLASTI**

700047. Toshkent sh.. Abay ko'chasi, 6
Tel.: (998-71) 144-41-08

700047. g. Tashkent. ul. Abaya, 6
Tel.: (998-71) 144-41-08

«_____» _____

Qibray tuman hokimligiga

ShAHARSOZLIK XULOSASI № _____

1. **Ob'ektning nomi va kimga qarashliligi:** Qibray tuman Xalq ta'lim bo'limi 8- sonli o'rta maktabga ochiq sport maydoni tashkil etish uchun yer maydoni tanlash va ajratish.
2. **Ob'ektning manzili:** Toshkent viloyati, Qibray tumani, Matqobulov nomli qishloq fuqarolar yig'ini «Ulug'bek» fermer xo'jaligi xududi.
3. **Xulosa berish asos bo'lgan xujjatlar:** Qibray tuman, hokimining 2006 yil 17 iyuldagi 825-sonli qarori, Toshkent viloyati yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasining 2007 yil 23 iyuldagi 36/07-sonli xulosasi, tuman yer tanlash va ajratish komissiyasining 2005 yil 18 avgustdagi dalolatnomasi, «Ulug'bek» fermer xo'jaligi a'zolarining 2006 yil 05 maydagi umumiy majlis bayonining nusxasi, 1:10000 nisbatdagi xo'jalik xaritasidan ko'chirmasi.
4. **Uchastka xarakteristikasi:** 8- sonli o'rta maktab xududida sport maydoni bo'lmaganligi, futbol, basketbol, voleybol va sakrash maydonchalarini tashkil etish maqsadida 0,5 gektar yer maydoni tanlandi. Tanlangan yer maydoni maktabga tutash bo'lib, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan, qurilishdan _____ xoli _____ yerdan iborat.

Ochiq sport maydoni qurilishini loyihalashtirish uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

1. Xarakatdagi ShQN 2.07.01-03 shaxarsozlik norma va qoidalari, shaxar va qishloq axoli punktlari xududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish _____ talablariga _____ amal _____ qilish;
2. Ochiq sport maydonining bosh rejasini ishlab chiqishda mavjud maktab binosi va xududi bilan o'zaro bog'lagan xolda o'yingoxlarni joylashtirishda

quyoshga nisbatan ariyentatsiyasini inobatga olish;

3. Ochiq sport maydoni qurilishi loyihalashtirishda tabiatni, atrof-muhitni va ekologiyani muxofaza qilish QMQ 01.03.01.-96, sanitariya SanQM 01.53.04, yong'indan muxofaza qilish QMQ 2.01.02-85 me'yoriy qonun-qoidalariga rioya qilish;

4. Viloyat arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi arxitektura – rejalashtirish topshiriqlarining 1-2 qismlarini tayyorlab berish uchun buyurtma berish va bajarilgan ARTlar asosida loyihalashtirishni amalga oshirish;

5. Loyihani viloyat shaxarsozlik kengashida ko'rib chiqish uchun viloyat arxitektura va qurilish bosh boshqarmasiga taqdim etish;

6. Ushbu xulosada bayon etilgan talablar qat'iyon bajarilishi shart aks xolda xulosa o'z kuchini yo'qotadi.

Bosh boshqarma boshlig'i

B. Sodiqov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI
H O K I M I

RESPUBLIKA UZBEKISTON
X O K I M
TASHKENTSKOY OBLASTI

Q A R O R
RESHENIYE

200__ yil “__” _____

_____ -son

Toshkent sh.

Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini tashkil etish uchun yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risida

Toshkent viloyati Qibray tumani Matqobulov nomli qishloq fuqarolar hududidan Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini tashkil etish uchun yer maydoni tanlash va ajratish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qibray tumani Matqobulov nomli qishloq fuqarolar yig'ini xududidagi «Ulug'bek» fermer xo'jaligi yeridan Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini tashkil etish uchun jami 0,5 gektar sug'oriladigan yer maydonini tanlash va ajratish to'g'risidagi Kibray tuman hokimining 2006 yil 17 iyuldagi 825-son qarori tasdiqlansin.

2. Qibray tuman Xalq ta'limi bo'limiga:

a) ajratilayotgan ekin yer maydonidagi unumdor qatlamini olgan holda shu hududdagi fermer xo'jaliklarining kam hosilli yerlarini yaxshilash uchun solish;

b) viloyat Arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasidan arxitektura rejalashtirish topshiriqlari (ART-1,2 qismlari)ni olishi;

v) viloyat Arxitektura va qurilish nazorat inspeksiyasidan inshooatlarning loyihasini ro'yxatdan o'tkazish vazifalari topshirilsin.

3. Viloyat Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasiga ushbu qaror asosida viloyat yer fondiga tegishli o'zgarishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Qibray tumani Xalq ta'limi bo'limi 8- o'rta maktabiga ochiq sport maydonini tashkil etish uchun mazkur qarorning 2- bandida ko'rsatilgan shartlar bajarilganidan so'ng ruxsat etilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 36- moddasi 10-bandiga asosan 2 yil mobaynida ajratilgan yer maydoni o'zlashtirilmasa mazkur qaror o'z kuchini yo'qotishi to'g'risida Qibray tuman Xalq ta'limi bo'limi ogohlantirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (T. Komilov) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi
vazifasini bajaruvchi

Z. Niyazov

18-ilova

_____ tuman xokimi
_____ ga

(F. I.Sh)

_____ qishloq fuqarolar
yig'ini hududida yashovchi fuqaro
_____ dan

(F.I.Sh)

Ariza

Menga _____ sabzavotchilik
(F.I.Sh)

maxsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan dehqon xo'jaligini
tashkil etish uchun _____

(massiv nomi)

massividagi _____ konturdan 0,20 ga o'lchamda yer
uchastkasini ajratib berishingizni so'rayman

(imzo)

(sana)

_____ tumani hokimligini huzuridagi yer uchastkalari berish
(realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish komissiyasi hulosasi

(sana)

_____.

(joyning nomi)

Komissiya raisi:

Tuman xokimi 1- o'rinbosari

(Familiyasi I.Sh)

Komissiya a'zolari:

1. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

2. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

3. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

4. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

5. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

6. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

7. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

8. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

9. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

10. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

11. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

12. _____

(lavozimi)

(Familiyasi I.Sh)

Fuqaro _____ bilan suxbat natijasiga

(Familiyasi I.Sh.)

ko'ra yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish
bo'yicha tuman komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

1. Fuqaro _____ O'zbekiston Respublikasi

(Familiyasi I.Sh.)

«Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunining 4- moddasi talabalariga javob beradi.

2. Fuqaro _____ga meros qilib qoldiradigan umrbod egalik
(Familiyasi I.Sh)

qilish uchun 0,20 ga tomorqa yer uchastkasini sabzavotchilik maxsulotlarini yetishtirishga yo'naltirilgan dehqon xo'jaligini tashkil etish uchun berish mumkin.

Komissiya raisi: _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)

Komissiya a'zolari: 1. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
2. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
3. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
4. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
5. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
6. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
7. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
8. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
9. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
10. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
11. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)
12. _____
(imzo) (Familiyasi I.Sh.)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT TUMAN
H O K I M I

RESPUBLIKA UZBEKISTON
H O K I M
TASHKENTSKOGO
TUMANA

«_____»_____200__y

_____ sh.

(joy nomi)

Dehqon xo'jaligini tashkil etish uchun yer ajratish to'g'risida

Fuqaro _____ ning dehqon xo'jaligini tashkil

(Familiyasi I.Sh.)

yozgan arizasi va tuman hokimiyati qoshidagi yer uchastkalari berish
(realizatsiya qilish) masalarini ko'rib chikish komissiyassining hulosasini
o'rganib chiqib

Qaror qilaman:

1. Fuqaro _____ ga dehqon xo'jaligini tashkil etish

(Familiyasi I.Sh)

uchun _____ massivi hududidagi № _____ konturdan

(massiv nomi)

0,20 ga o'lchamda yer uchastkasi ajratib berilsin.

2. Tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limi boshlig'i

_____ ga yer uchastkasini joyda ajratib berish va dehqon

(Familiyasi I.Sh)

xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish topshirilsin.

Tuman xokimi

(imzo)

(Familiyasi I.Sh)

_____ Dehqon xo'jaligi yer uchastkasi tarhi
M I Q Yo S 1:2000

Chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar

A dan B gacha _____

B dan V gacha _____

V dan G gacha _____

MUQUMOV ABDUG'ANI MUROTOVICH

«YER HUQUQI»

fanidan

(M E T O D I K K O' R S A T M A)

Muharrir: M. Nurtoyeva

Musahhih: D.Boyzoqova

Bosishga ruxsat etildi _____. Qog'oz o'lchami 60x80 1/16

Hajmi 3,5 b.t. 30 nusxa, buyurtma № _____

TIMI bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent – 700000, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy